



Husan SUVONQULOV,
Guliston davlat universiteti dotsenti
E-mail: xusansuvankulov@gmail.com

GulDPI dotsenti, DSc A.Asatulloev taqrizi asosida

THE STRUCTURE AND PHILOSOPHICAL ESSENCE OF THE WORK "ME'YOR UL-AKHLOK"

Annotation

This article explores the activities of Abdurahmon Toshkandiy (Sayyoh) and the significance of the Jadid movement in Turkestan during the late 19th and early 20th centuries. It highlights the role of the journal *Al-Isloh* in shaping socio-political and cultural life, as well as the philosophical and ethical concepts presented in the work *Me'yor ul-axloq*. The study also addresses women's rights, criticism of traditional rituals, and the importance of enlightenment as a key to progress.

Key words: Jadidism, Abdurahmon Toshkandiy, *Al-Isloh*, *Me'yor ul-axloq*, enlightenment, Turkestan history.

СТРУКТУРА И ФИЛОСОФСКАЯ СУТЬ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «МЕЁР УЛЬ-АХЛОК»

Аннотация

Статья посвящена исследованию деятельности Абдурахмана Ташкандий (Сайёха) и роли джадидского движения в конце XIX – начале XX века в Туркестане. Рассматриваются вклад журнала «Аль-Ислах» в культурную и общественно-политическую жизнь региона, а также философско-этические идеи, отраженные в труде «Меёр уль-ахлоқ». Особое внимание уделено вопросам прав женщин, критике традиционных обрядов и необходимости просвещения как основы прогресса.

Ключевые слова: Джадидизм, Абдурахман Ташкандий, «Аль-Ислах», «Меёр уль-ахлоқ», просветительство, история Туркестана.

“ME'YOR UL-AXLOQ” ASARINING TARKIBIY TUZILISHI VA FALSAFIY MOHIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqola XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik harakati, uning ma'rifiy, axloqiy va ijtimoiy-siyosiy g'oyalari hamda Abdurahmon Toshkandiy (Sayyoh)ning faoliyati haqida batafsil ma'lumot beradi. Maqolada “Al-Isloh” jurnalining Turkiston ijtimoiy hayotidagi o'rni, “Me'yor ul-axloq” kabi asarlarda ilgari surilgan axloqiy qarashlar tahlil qilingan. Shuningdek, ayollar huquqi, marosim va urf-odatlariga tanqidiy yondashuv, ma'rifat va taraqqiyot g'oyalari asosida jamiyatni yangilash jarayonlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Jadidchilik, Abdurahmon Toshkandiy, “Al-Isloh”, “Me'yor ul-axloq”, ma'rifatparvarlik, Turkiston tarixi.

Kirish. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy hayoti murakkab siyosiy va madaniy jarayonlar bilan ajralib turgan davr bo'ldi. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati xalqning turmush tarziga, ma'naviy hayotiga hamda tafakkuriga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Shu sharoitda ma'rifatparvar jadidlar millatni jaholatdan qutqarish, ilm-ma'rifat orqali taraqqiyotga erishish g'oyasini ilgari surdilar. Ular yangi usuldagi maktablarni tashkil etish, matbuotni rivojlantirish, ayollar huquqlarini himoya qilish kabi dolzarb masalalarni ko'tarib chiqib, jamiyatni yangilashga intildilar. Ushbu jarayonda Abdurahmon Toshkandiy (Sayyoh)ning faoliyati, uning muharrirligidagi “Al-Isloh” jurnali hamda “Me'yor ul-axloq” kabi asarlari alohida o'rin tutadi. Mazkur maqolada mutafakkirning axloqiy-falsafiy qarashlari, ijtimoiy-siyosiy fikrlari va jadidchilik harakati rivojidadagi o'rni tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Turkistonni XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya mustamlaka qildi va tobe o'lkaga aylantirdi. “Jaholat deganlari qachondir tarixda bo'y ko'rsatganu endi qaytib kelmasligi aniq bo'lgan hodisa emas. Taassuflar bo'lsinki, u har bir zamonda qaysidir ko'rinishlarda namoyon bo'laveradi. Millatni ich-ichidan yemiradi. Taraqqiyotdan necha yuz yillar orqada qolishiga sabab bo'ladi. Tanazzul girdobiga tortadi. Binobarin, har bir millatni, uning vakillarini jaholatdan qutqarguvchi yagona vosita-ilm va maorifdir. Kimki ilm va maorifga munosib darajada e'tibor

bersa, shubhasiz, saodatga erishadi”[1]. Ushbu ijobiy qarashlar sekin-asta mustamlaka Turkiston diyorida milliy Uyg'onish jarayonini boshlab berdi. Yerlik aholining ichidan o'z millatini ozod ko'rishga va dunyoning turli xalqlari bilan raqobatlasha oladigan bosqichga olib shiqishga harakat qilish natijasida ushbu Uyg'onish Yevropa ma'rifatsiviligiga qaraganda anchayin shiddatli va keng ko'lamli kechdi. Qolaversa, o'rta asrlar ilgari surgan ma'rifatparvarlik g'oyalari ushun ham shu vaqtlarda amaliy ko'rinishlarda yangisha - ma'rifatsivilik shaklida aks etish zaruriyati paydo bo'ldi. Negaki, ushbu qarashlarni o'zgargan holatlarda shakllantira oladigan shiddatkor ziyolilar yetilgan edi. Bularni keyinshalik jadidlar deya atadilar.

“Ma'rifat tarqatish asosan ush sohada tezkorlik bilan rivojlanib bordi. Bular - maorif (yangisha maktablar tashkil etish, ta'lim shaklini yaxshilash), san'at (ma'naviy adabiyot, teatr) va matbuot. Asosiy maqsad millatni, bir tomondan, ilm-ma'rifatli qilish bo'lsa, ikkinchi tomondan, xalqning axloqiy salohiyatini yuksaltirish va mana shu tomonlarning uzviyligi natijasi o'laroq o'zligini, o'z qadrini anglagan ilimli insonni tarbiyalash edi. Turkiston ma'rifatparvarlari tomonidan mana shu niyatni ro'yobga chiqarish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Xususan, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ayol-qizlarning bilimli, har tomonlama yetuk axloq-odob namunasi bo'lishlari ushun ilm-ma'rifat egalari ichida say-harakatlar boshlandi. Holbuki, oiladagi farzand tarbiyasi, ya'ni barkamol

avlod tarbiyasi ko'pincha onalar bilan bog'liqligi barchaga ma'lum bo'lib qolgan edi"[2]. "Agar xotun o'qigan bo'lsa, o'zining kim ekanligini, vazifasi nimadan iborat ekanligini shak-shubhasiz biladi. Bolalarini esa go'zal tarbiya qiladi, eri bilan yaxshi muomalada bo'ladi va nihoyat Alloh taoloning amriga muvofiq hayot keshiradi"[3], - deyilgan risolada. "Bunda ayol-qizlarning oiladagi o'rni, oilaviy yumushlari, er-xotin o'rtasidagi munosabatlar, farzand tarbiyasi, xonadonni yuritish, nikoh va muhabbat borasida ibratli fikrlar keltirib o'tiladi. Shu qatorida uy xizmatshilari bilan munosabatda bo'lganda insof va adolatga amal qilib, ularning ham xo'jayinlari singari inson ekanliklarini bilgan holda ish olib borishlari zarurligi keltirib o'tiladi, oilaning farovon hayot kechirishi uchun yordam beradigan oqilona pandlar keltiriladi"[4].

"Sakson yetti darsni o'z ichiga olgan "Oila saboqlari" (1913) nomli boshqa bir asarda tarbiya berishning har xil usullarini birdaniga o'z ishiga olganligi aytiladi. Axloqshunos olimlari o'z asari orqali nafaqat ayollarga, qizlar maktabi talabalariga turmush vazifalari borasida kerakli maslahatlar berish, balki ular uchun yengil qabul qilinadigan axloq o'giti hamdir, deydi. U o'n ikkinchi darsda tarbiyani "ilmni axloqning negizi, asosi", deb ta'riflaydi. Risola falsafiy mulohazalarga qaraganda asosan amaliy ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi. YA'ni bunda ham ma'naviyatga, ham moddiyatga dolzarb mavzu shaklida qaraladi, yetuk barkamol farzandni tarbiyalashda har ikki sohadagi axloqning lozimligi ta'kidlanadi"[5].

"...agar vijdon, insof ila muhokama qilsak, tavaqqusiz va taraddudsiz eski maktablarimizni asoslaridan yiqib, joylariga tartib va intizom bilan yangi usul domlalarining himoyasida bo'lgan maktablar bino etmak lozimdir. Eski maktabdollarimizni dehqonchilik hunarlariga sahiv etmak muvofiqi haqiqatdir. Bu janobi mullalarga va eski-yangi domlalarimizga oxirgi so'zim"[6].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tarixiy-tahliliy, qiyosiy va manbahunoslik metodlari qo'llanildi. Abdurahmon Toshkandiy faoliyati, jadidchilik harakati va "Al-Isloh" jurnali materiallari asosida ilmiy tahlil amalga oshirildi. Mutafakkirning axloqiy-falsafiy qarashlari falsafiy va ijtimoiy yondashuvlar orqali baholandi. Shuningdek, zamonaviy ilmiy manbalar va tarixiy hujjatlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. "Meyor ul-axloq" risolasi umumiy mazmunda bir-birining aksi bo'lmish ikki masala - ijtimoiy adolat hamda ijtimoiy zulm tushunshalarini o'z ichiga olgan. Asar bir qator joylarida falsafiy-majoziy o'xshatishlardan iborat. Shunonshi, "asar davomida, xususan uning birinchi faslida, axloq kategoriyalari tavsiflanadi hamda botiniy mohiyati o'ziga xos tarzda ifodalaniadi. Fazilatli inson mehnati tufayli dunyoni yashnatayotgan insonlar qalbining oqligi, illatga burkangan odamlar qilayotgan xatti-harakatlarining qoraligi keltirib o'tiladi hamda bular bu tufayli axloqiy ma'no kasb etadi"[7]. Risolaning ikkinchi faslining bir qismida Abdurahmon Sayyoh "o'z zamonasidagi ayollar holatini, ularning to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita ijtimoiy kamsitishlar oqibatida o'z qobiliyati, iste'dodi, nafosatini namoyon qila olmasliklarini ta'kidlab o'tadi"[8]. Ayollar, hattoki, ko'sha-ko'ylarga zaruriyat bo'lsa, masalan, qarindosh-urug'larini yo'qlagan borish ushuni shiqqanlarida, eski paranjiga berkinib, kampirlar singari bukshayib yuradilar. Shunki, mabodo qaddi-qomatini tik tutib, yo oshilib-soshilib yursalar, ularga erkaklar tashlanib qolishlari mumkin. Bu kabi axloqsizlikning tomiri ijtimoiy adolatsizlikka borib taqaladi: qo'li kaltaligi sababli oila qurish, oila rahbari bo'lish mavqeidan mahrum etilgan bunday erkaklar shayton vasvasasiga chalinib, shahvoniy hirsillarini

jilovlay olmaydilar. Ammo ma'rifatparvar jadid kelajakka katta ishonsh ko'zi bilan boqadi, bunday ijtimoiy-axloqiy illatlar bir kun kelib yo'qoladi, ozodlik, erkinlik davrlari keladi.

Abdurahmon Sayyoh odil hukmdor masalasiga alohida to'xtalib, mazkur davr ushuni benihoyat sof, kutilmagan hamda ayni davrda ham mazmunini yo'qotmagan fikrlarni aytib o'tadi. Ma'rifatparvar, "o'rus hukmdor musulmonlarga zarrashayinki tinchlikni ravo ko'rmaganini" so'zlaydi. Ayrim ruslar egaligini oqlaganlarga nisbatan bunday deydi: "Agar o'rus podshohi haqiqatda adolatli bo'lsa, va aning xohishi tobe xalqlar ham o'rus singori ozod bo'lsun va hamma xaloyiq o'rus birla teng bo'lib, ro'zg'or keshirsun desa, amorat va hukmronliq qonunlarini adolat birla tahrir qilsun, hukmronliq qonunini din qoidalaridin mustasno vujudga keltirsun, din ahlini ibodat borasida homiy bilib, davlat va bilimdonliqni xalq ro'zg'oridin kashf etsun. Xaloyiq dodig'a, rozig'a quloq bersun"[9].

Ushbu mustamlakashilik va adolatsiz boshqaruvdan ozod bo'lishning chorasi bormi? Abdurahmon Toshkandiy buning ikki chorasini keltiradi. Avvalo aqlni inson o'ziga vazir qilib, falsafiy fikr yuritib ish ko'rish barobariga unga yetishish mumkin: "Vaqtiki ilm daraja qilib, falsafa ravnaq topsa, bu shigillarim kushoda bo'lur. Falsafa iborasi ila qarshi va zid so'zlarni muqoyyasa qilg'onda bu shigillar oshilur"[10]. Ikkinchi chora esa o'z haq-huquqini himoya qilish uchun amaliy harakat qilish, mustamlakashilik azobiga va zulmga qarshi birlashmoq, qo'lda qurol bilan kurashmoq. Ushbu yo'lni muallif bunday ta'riflaydi: "... albatta, aqlu idrok va jamoatg'a takya qilib, hamma shayx so'fiylardan yiroq va hamma tarsu vahmdin emin bo'lib, zolimlarga qarshi muboriza qilmoq, yakkalikdan hazar qilmoq, ushbu tadbirlar ila zulmni nobud etib, zulmatni bartaraf qilmoq zarurdir"[11].

Ma'lumki, Markaziy Osiyoda yashab o'tgan aksariyat faylasuflar singari jadid ma'rifatparvarlari ham davlat boshliqlari xususida ijobiy va tanqidiy fikr-mulohaza yuritadilar. Shunonshi, o'tmishdoshlarining odil podshoh to'g'risidagi fikrlariga yangi mazmun berib, unga umuminsoniy - axloqiy nuqtai nazardan yondashishlarida ham individuallik ko'zga tashlanadi. Masalan, Abdurahmon Toshkandiy axloqiy qarashlarining negizida: hukmdor va xalq o'rtasida mushtaraklik, xalq manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo'yish, eli ushuni jon kuydirish, kishilarga mehr-shafqat, muruvvat ko'rsatish, hukmdorning zohiriy va botiniy dunyosi turli ko'rinishlarda talqin qilinib, adolat, haqiqat, mehr, sahovat, vafo, sadoqat ulug'lanadi, jabr-zulm, jaholat, adolatsizlik va nohaqlik qoralanadi.

"Abdurahmon Toshkandiy ijodining falsafiy g'oyalar markazini insonparvarlik va axloq tashkil qiladi. Mutafakkir o'z maqolalarida insonning jamiyatdagi o'rni, jamiyat va insonning o'zaro munosabati haqida fikr yuritir ekan, ularga umuminsoniy qadriyatlar nuqtai nazardan yondashadi. Yuksak insoniy fazilatlar, axloqiy mezonlar, xalqparvarlik, adolat va ma'rifatlilikni ulug'lash bilan birga zulm, jaholat va nodonlikni qoralaydi"[12].

Xulosa va takliflar. Tadqiqotda XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik harakatining milliy uyg'onish jarayonidagi roli va Abdurahmon Toshkandiyning bu yo'ldagi hissasi yoritildi. Uning "Al-Isloh" jurnali hamda "Meyor ul-axloq" asari orqali ilgari surilgan g'oyalar xalqni ilm-ma'rifatga chorlash, ijtimoiy adolatni qaror toptirishga qaratilgan edi. Ushbu qarashlar bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan.

Taklif sifatida jadid merosini keng targ'ib qilish, ularning asarlarini qayta nashr etish va ta'lim tizimida keng o'rganish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Абдулҳаким Н. Маърифат нимадир, жаҳолат надир? // Тафаккур, 2005, 3-сон. –Б. 14-15.

2. Asatulloev A.A. Abdurahmon Toshkandiy ijodining Turkiston ma'naviy-axloqiy hayotidagi o'zgarishlarga ta'siri., "Zamonaviy targ'ibot texnologiyalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishning dolzarb masalalari" mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi (2024 yil 28 mart., 272 bet).
3. Togan Zeki Velidi, 1999: Hatıralar: Türkistan ve Diğer Müslüman Doğu Türklerinin Millî Varlık ve Kültür Mücadeleleri [Reminiscences: National and Cultural Struggles of Turkestan and other Muslim Eastern Turks], Istanbul: Türkiye Diyanet Vakfı, 3rd. ed. –p. 16.
4. Asatulloev A.A. Abdurahmon Toshkandiy ijodining Turkiston ma'naviy-axloqiy hayotidagi o'zgarishlarga ta'siri., "Zamonaviy targ'ibot texnologiyalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishning dolzarb masalalari" mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi (2024 yil 28 mart., 272 bet)
5. Togan Zeki Velidi, 1999: Hatıralar: Türkistan ve Diğer Müslüman Doğu Türklerinin Millî Varlık ve Kültür Mücadeleleri [Reminiscences: National and Cultural Struggles of Turkestan and other Muslim Eastern Turks], Istanbul: Türkiye Diyanet Vakfı, 3rd. ed. –p. 24.
6. Долимов У. Авлоний – методист олим// Миллий уйғониш. –Т.: Университет, 1993. – Б 54.
7. ۱۹۱۲، تاشكند، غلام حسن آرفجانوف متبعی. معيار الاخلاق. عبدالرحمان سياح تاشكندی. –معيار الاخلاق. (Abdurahmon Sayyoh Toshkandiy-Me'yor ul-axloq. G'ulom Hasan Orufjonov matbaasi. Toshkent, 1912) – B. 11.
8. O'sha manba. – B. 89.
9. Заиф ва ночорлик // Ал-Ислох. – Тошкент, 1915. – № 3. – Б. 62-63.
10. O'sha manba. –B. 64
11. O'sha manba. – Б, 64.
12. Абдуазизова Н. Ўзбекистон журналистикасининг шаклланиши ва равнақи (XIX аср охири-XX аср). -Т.; 1998. –Б. 87.